



ZEBO MIRZONING BADIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Omonova Sabohat Xolmamat qizi

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika: O'zbek tili yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7485519>

ARTICLE INFO

Received: 17th December 2022

Accepted: 26th December 2022

Online: 27th December 2022

KEY WORDS

Badiiy san'at, o'xshatish, jonlantirish, tashxis, intoq, tazod, takrir

ABSTRACT

Adabiyot so'zining arabcha adab so'zi bilan bog'liqligini hisobga olsak, badiiy adabiyot estetik ta'sir etishi bilan shaxsning ma'naviyatini boyitadi, estetik qobiliyatini o'stiradi, unda ezgulikni qadrlashga bo'lgan intilishni rag'batlantiradi, ya'ni keng ma'noda tarbiyaviy ahamiyatga ega. She'riy san'atlarni yuzaga chiqaruvchi vosita – til, tilning imkoniyatlaridir. Masalan, tazod (antiteza) san'ati tilda antonim so'zlarning mavjudligi tufaylidir. Shunga o'xshash barcha badiiy san'atlar zaminida tilning vosita va imkoniyatlari turadi. Ushbu maqolada Zebo Mirzo she'riyati va undagi badiiy san'atlar haqida so'z boradi.

Badiiy ijod, xususan, she'riy asarlar tilining poetik ta'sirchanligini oshirishda so'z muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar tilining emotsional-ekspressivligini oshiruvchi, obrazlilik hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi lingvopoetik vositalardan biri o'xshatish hisoblanadi. Badiiy matnlarda muallifning ma'lum bir voqea-hodisa, narsalarni kitobxon ko'z o'ngida aniq gavdalantirish uchun o'xshatishdan foydalanishida aniq bir maqsad – kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish ko'zda tutiladi. Nutqiy vaziyat uchun mos keladigan o'xshatish hosil qiluvchi til birligining to'g'ri tanlanishi uni emotsional-ekspressiv vositaga aylantiradi. Muomala jarayonida qo'llanilgan o'xshatishlar vositasida so'zlovchi mansub bo'lgan xalqning milliy-ma'naviy xususiyatlari, ijtimoiy turmush tarzi va dunyoqarashi, e'tiqodi, an'analari va urfodatlari bilan

bog'liq jihatlar ham aks etadi. Bundan tashqari tasvirlanayotgan shaxsning ruhiy holati, orzu-umidlari, o'y-kechinmalarini berishda ham oxshatishlar muhim vosita hisoblanadi. O'xshatish deb «ikki narsa yoki voqea hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalashga aytiladi. Korinadiki, o'xshatishlar eng qadimiy lingvopoetik tasviriy vositalardan biri sifatida yozma va og'zaki nutqimizni, ayniqsa, inson nozik his-tuyg'ulari tasvirini berish vositasi bo'lgan badiiy matnlarning badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishda, muallif maqsadiga xizmat qiluvchi obrazlilikning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'xshatish etaloni o'xshatish qurilmaning poetik qimmatini, muallif mahorati bilan hosil qilingan lingvopoetik



vositaning estetik salmog'ini oshiradi. Endi Zebo mirzo she'rlaridagi o'xshatishlarga e'tibor qaratsak.

*Va yoki ming yillik mayi nob kabi,
Gumroh bir kechada befarq ichilsam.
Va yoki nomahram ko'zlar o'ngida
Egasiz maktubday qaqrab o'qilsam.*

Ushbu parchada shoira o'zini ming yillik mayga va egasiz maktubga o'xshatadi. Shuningdek, shoiraning quyidagi she'riy parchasiga e'tibor bersak:

*Neni orzu qildim,
Kutdim nimani.
O'zimni jimgina johlarga otdim.
Daryolar tubida yotgan tosh kabi,
Daryo yillarimni yo'qotdim...*

Bu yerda kabi ko'makchisi orqali o'xshatish hosil qilingan. Aksariyat hollarda o'xshatish turli grammatikvositalar: -dek/day, -namo, -larcha, -simon, -dan qo'shimchalari, yoki "go'yo", "kabi", "xuddi", "misli", "misoli", "yanglig'", "bamisoli" kabi ko'makchilar vositasida amalga oshadi. Quyidagi she'riy parchada o'xshatishning go'zal namunalari tanlangan:

*Osmon, osmon, bechora osmon,
Tunda yig'lab to'kdi dardlarin.
Unutildi o'tgan ishqsimon
Daraxtlarning yupun barglari...*

Ushbu satrlarda lirik qahramon o'zining mahzun tuyg'ularini obrazli fikrlar orqali ifodalashi she'rning emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan. Jumladan, "bardoshlarim singan kuchada", "unutildi o'tgan ishqsimon", "xazin kecha", "yupun barg" kabi o'xshatishlar she'rning

ta'sirdorligini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Jonlantirish va tashxis san'ati dunyo xalqlari, mumtoz va yangi adabiyotning poetikasida eng ko'p murojaat etilgan badiiy san'atlardan hisoblanadi. Jonlantirish- odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni jonsiz predmetlarga, tabiatning turli hodisalariga ko'chirish orqali, to'g'rirog'i, ularni insoniylashtirish orqali paydo bo'ladigan tasvirdir. Bu tasvirning ikki xil ko'rinishi mavjud: Birinchisi, tashxis (shaxs bilan bog'liq) jonsiz narsalarni jonlantirish usulidir: masalan badiiy asarda quyosh yuguradi, daryo shoshadi, samo (yulduzlar) ko'z yosh to'kadi, harsang (tog') bardosh va sabr ko'rsatadi, gul kuladi, bulutlar ho'mrayadilar, qovoq osadilar, yig'laydilar, tun uxlaydi, oy yuradi, yulduzlar guvohlikka o'tadi, qashshoqlik kuladi... Shoira ijodida tashxisdan unumli foydalangan. Masalan:

*Titrab uyg'onaman...
Tun... allamahal...
Etagida xazon, uxlaydi yo'lak,
Ovozing... Qaylarda axir ovozing?
Ko'ksimga bosh qo'yib xo'rsinar yurak...*

Ushbu she'riy parchada uxlaydi yo'lak-tashxisni yuzaga keltirgan. Ya'ni uxlash insonlarga xos bo'lib, shoira uni tashxis san'ati orqali yo'lakka ko'chirgan.

Jonlantirish usuli tasvir obyektni bo'rttirib, qabartirib, yorqin va ravshan qilib tasvirlashga imkon beradi.

*Oislarda mudraydi qishloq,
Dunyo mensiz ko'radi tushlar.
Nayzalarin samoga tirab,
Ko'l bo'yida uxlar qamishlar
Oy nurida osilib olar*



*Teraklarning ko'kka narvoni.
Cho'kka tushgan tuyalar kabi,
Hansiraydi qirlar karvoni.
Daryo suvin ichar dalalar,
Sohillarga lablarin qo'yib.
Yulduzlarga aytib allalar,
Uyg'onaman yuragim kuyib...*

Yor sog'inchi, yor visoli shoira uchun nafaqat o'ngida, balki tushlarida ham armondir. Bu yerda qishloqning mudrashi, dunyoning tush ko'rishi, qamishlarning uxlashi, qirlarning hansirashi, dalalarning suv ichishi kabi jonlantirishlar qo'llangan. Birgina she'rda shuncha jonlantirishlaning bo'lishi shoiraning individual mahoratiga, ustomonligiga, dunyoqarashiga bog'liqdir.

Ikkinchisi, intoq (nutq bilan bog'liq) nutqi yo'q narsa va predmetlarni nutq egasi sifatida jonlantirish usulidir.

Sevish gunoh, sevilmalik yana gunoh!

Ko'ngilga nur quyiladi Xudo guvoh.

Titrab-qaqshab ho'l barmoqlar pichirlaydi:

O'tib ketsak shu sevgiga oqmaygina,

Kechirmaydi, bizni Xudo kechirmaydi!

Shoira ijodida talmeh sa'atining go'zal namunalari ham uchratishimiz mumkin. Talmeh (nazar solmoq) she'r yoki narsda tarixiy voqealar, afsonalar, qahramon nomlarini keltirish san'atidir.

Balki Layli ko'nglim bor edi,

Balki ruhda Majnun holi.

Bu dunyoning tor qafasiga

Sig'may o'ldi ishqim xayoli...

Bu yerda "Layli va Majnun" dostonining qahramonlariga ishora qiladi. O'quvchi u yoki bu nomga ishorani ko'rar ekan, uning ko'z o'ngida o'sha doston qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojeali taqdiri jonlanib, shoir nima demoqchi bo'lgan

g'oyani, fikrni, tuyg'uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi.

Shuningdek shoira she'rlarida takrir san'atidan ham keng foydalangan. Takrir – takrorlash ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi.

Endi kech,

Ufqida tunlar yig'laydir.

Xazon yo'llariga tutash yo'limning.

Endi kech...

Yulduzlar "Oh"lar urgaydir.

Qanoti kuyadi hur xayolimning...

Endi kech-

Ko'zimning olgun shabnami

Labingda titramas...titramas...

Bildim, evoh, bildim,eh, nega bildim.

Senga taskin kerak...

Men emas! Endi kech...

Men g'ayri, shunchaki g'ayri,

Ketdim. Xush qol, moviy tunlar faslida.

Ishq karamning osiy bandaga xayri,

Ishq- bu dorga o'zni osmoq, aslida!

Endi kech,

Bilarsan,, meningday purg'am,

Uzun umring uchun behuda va hech.

Kechangdan kechmassan, hayolingdan ham.

Azobing, gunohing, mendan endi kech!

Endi kech...Endi kech...Endi kech...

Ushbu she'rda "endi kech" so'zini takror qo'llar ekan, shoira shu so'z anglatayotgan ma'noni ta'kidlash maqasadini ko'zlagani ko'rinib turibdi. Ushbu takrorlar asar qahramoni bo'lgan oshiq qiyofasini yorqinroq gavdalantirish, uning dil dardlarini ta'sirchanroq mujassamlantirish vazifasini bajaradi.



Shoira ijodida tazod san'atini ham ko'rishimiz mumkin. Tazod so'zi zid qo'yish, qarshilantirish ma'nolarini ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi she'riy san'at esa baytda ma'no jihatdan o'zari zid, qarama-qarshi bolgan so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi. Masalan:

*Men seni judayam sog'indim....
Buni aytgim kelar o'zingga faqat.
Biroq keguningcha, avval-oxirim,
Tugab bitmasmikan mendagi toqat?*

Ushbu she'riy parchani ko'zdan kechirsak, undagi avval va oxir so'zlari o'zaro zid ma'nolarni ifodalashi, shoira ularni qo'llash bilan mahbuba va oshiq munosabatlarini yorqinroq aks ettirganini ko'ramiz.

Shoira ijodida qo'llangan badiiy san'atlar she'rda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'mminlashga xizmat qilgan.

References:

1. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent Fan 2007.
2. Zebo Mirzo Nur kukunlari. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2004.
3. Zebo Mirzo. Ishq. Toshkent. Akademnashr. 2011.
4. www.ziynet.uz